

## MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARINI BILISH JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHDA FAOLIYAT MARKAZLARI VA TADQIQOTLI TAJRIBALARING AHAMIYATI

Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna  
Guliston Davlat universiteti Maktabgacha  
ta'lim kafedrasи o'qituvchisi  
E-mail: [fayziyevamabuda@gmail.com](mailto:fayziyevamabuda@gmail.com)

Tel: 99 473 83 71

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8046513>

**Annotatsiya** Ushbu maqola bolalarni bilish jarayonlarini rivojlantirib borishda tashkil etiladigan kichik tadqiqotlar va tajribalarning ahamiyati haqida. Faoliyat markazlarida tajribalarni o'tkazish va kerakli jihozlarni tayyorlashda kattalarning roli nimalardan iborat ekanligi haqida mulohaza yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** bilish kompetetsiyasi, tadqiqiy-bilish, rivojlantiruvchi muhit, tajriba, manipulyasiya.

XXI asrda yashayotgan yosh avlodni ulkan o'zgarishlar kutmoqda. Turmushning barcha sohalarida o'zgarishlar, rivojlanishlar kuzatilmoqda. Texnologik rivojlanish davrida zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar bolalarga puxta va uzlusiz ta'lim berishni talab etadi. Bolalarni kelgusida ular oldidan chiqadigan muammolarni hal etishga tayyorlab borish zarurligini ko'rsatadi. Buning uchun butun hayotlari davomida tinimsiz o'qib, o'rganishga odatlantirish, savollariga amaliy tajribalar orqali javob olishga o'rgatib boriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama maktab ta'limga tayyorlashda aqliy jihatdan tarbiyalash muhim o'rinn tutadi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida 6-7 yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy kompetensiyalari: jismoniy rivojlanish, ijtimoiy -hissiy rivojlanish, nutq, muloqat, o'qish va yozish malakalari, bilish jarayoni rivojlanishi, ijodiy rivojlanish kabilalar nazarda tutilgan. Bilish kompetensiyasi-atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma va malaka, qadriyatlarni o'quv-amaliy vazifalarni hal etish uchun foydalanishdir. Aqliy tafakkuri rivojlangan bolalarda maktab dasturlarini o'zlashtirish darjasini yuqori bo'ladi. Buning uchun bolaga eng kichik yoshidan e'tibor qaratish, bola rivojlanishida bilish jarayonlarini rivojlanishi uchun zarur faoliyat markazlarini va shart-sharoitlarni yaratib berishni talab etadi. Bilish jarayoni o'z navbatida intellektual-bilish malakalari, elementar matematik malakalar, tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyatlarini o'z ichiga oladi.

Bolalar tug'ma tadqiqotchi, o'zlarini o'rabi olgan muhit to'g'risida faol ma'lumot yig'uvchi hisoblanadi. Ular o'z dunyolarini kuzatish va tajriba o'tkazish yordamida anglashga harakat qiladilar. Bolalardagi tabiiy qiziquvchanlik ma'lumot to'plash faoliyatiga aylanadi.

Bolalarda uch oylikdan boshlab manipulyasiya davri boshlanadi. Manipulyasiya-bir yoki har ikkala qo'lning ma'lum bir vazifalarni bajarish maqsadida harakatlantirishdir. Bu davrda bola atrofdagi narsalarni paypaslab ko'rish orqali idrok eta boshlaydi. Muhitni qo'llari va og'zi bilan o'rganadi. Predmetlarni bir-biriga uringa, undan chiqqan ovozga qulq soladi. O'zini qiziqtirgan predmetlarga qarab intiladi va o'z xoxishlarini qondirishga harakat qiladi. Mana shu davrni e'tibordan chetda qoldirmay mas'uliyat bilan tashkil etish, bolani yoshiga mos intellektual o'yinchoqli predmetlar bilan ta'minlashni talab etadi. Manipulyativ materiallar ilk

yoshdagi bolaning sensomotorikasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Sekin- asta bolaning yoshi o'sib borishi natijasida, ular haqidagi bilimlari kengayib boradi.

Manipulyativ materiallar deb, stol ustida olib boriladigan faoliyatda qo'llaniladigan mayda predmetlarga aytiladi. Bu materiallardan nimadir yasalishi, nimanidir yig'ilishini ko'zda tutadi va bu jarayonda qo'llari va ko'rishni muvofiqlashtirishni talab etadi. Misol uchun, qirqma rasmlar, boshqotirmalar, buslar, loto va lego konstruktorlari ham ularni nimagadir kirgazish, qo'yish, o'tkazishni talab etadi. Buning natijasida bola ularni tajribadan o'tkazadi, tafakkurni tahlil qilish, umumlashtirish, hulosa chiqarish kabi jihatlari rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bola uchun shunday muhitni yaratishda kichik tajriba va kichik tadqiqotlar burchagi jihozlanadi. Buning uchun atrofdagi, turmushdagi materiallardan unumli foydalanish mumkin. Qiziqarli materiallar bolalarga ko'rish va sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Unda tugmalar, shisha probkasi, suv chig'anoqlari, toshchalardan, tabiat materiallaridan, suv, qumlardan, po'stloq, urug'lar, mo'yna, gazlama, turmushdagi buraluvchi, bo'lunuvchi, yaxlitlovchi jihozlardan foydalaniladi. YOg'och bo'laklari va rezina lentalar sanoq ishlarini bajarish uchun foydalidir. Bunday jihozlar bolaning intellektual rivojlanishiga sonlarni identifikasiyalanishini ko'zda tutuvchi topshiriqlarga qaraganda ancha samarali hisoblanadi. Lekin bu jihozlarni tanlashda bola yoshi hisobga olinishi zarur.

Rivojlantirish markazlarida tashkil etilgan bu kichik tadqiqot va tajribalarda pedagoglar ta'limning vizual, taktil-kenestetik, tahliliy usullaridan bolalarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda, foydalanish maqsadga muvofiqlimdir. Vizual usulda ta'lim oluvchi bolalar ko'rish va kuzatish yordamida atrofdagi detallarni eslab qolishlari kuchli bo'ladi. Bu berilgan axborotlarni eslab qolishga yordam beradi.

Taktil-kenestetik ta'lim oluvchi bolalar o'z qo'llari bilan nimanidir yasash, narsalarni ushlab ko'rish, topshiriqlarni mustaqil bajarishga intiladilar.

Tahliliy ta'lim oluvchilar mantiqiy jarayonga jalb etilganda oddiydan murakkabga, kichikdan kattaga, qismlardan butunga o'tib boruvchi topshiriqlarni aql bilan mantiqiy bajaradilar va umumlashtirishga layoqatli bo'ladilar.

Maktabgacha katta yoshdagi bola uchun rivojlantiruvchi muhitni shunday jihozlash kerakki, bola mustaqil ravishda taqdim etilgan predmetlardan foydalanib tadqiqot orqali echimi talab etilayotgan muammoni echish va tajribalarini umumlashtirib hulosalar chiqarish imkonini bo'lsin. Predmetlar bilan ishslash orqali kuzatish, taqqoslash, tasniflash, gipotezlarni oldinga surish va muhokama qilish imkoniga ega bo'lsin.

Yosh bolalarni kattalar bilan tadqiqot jarayonida bevosita ishtirok etishi juda muhim. Bolalar tadqiqotlarda qatnashib biror narsani eritish, cho'ktirish, suv sathiga chiqarish kabi tajribalarni bajarishi orqali uning xususiyatlarini bilib oladi. Buning natijasida kuzatish, qiyoslash, tavsiflash, oldindan biliш, xabardor bo'lish kabi bilimlarga ega bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi 4-5 yoshli bolalar bilan rivojlantiruvchi markazlarda buyumlarni qizdirish va uning natijalari, magnetizim, uning ta'siri natijasida bajariladigan harakatlar tadqiq qilinadi. Magnitlarning tortishishi va magnit maydoni, itarish kuchi hosil qilishi haqidagi tasavvurlar bolalarning ilmiy ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Magnitlar, metall qirindilari va metaldan yasalgan boshqa predmetlar ustida tajribalar o'tkazish, kuzatish, qiyoslash, oldindan aytish va axborot berish qobiliyatlarini shakllanishiga yordam beradi. Temir qirindilari qutichalarga solinib, mahkamlanadi va metall qirindilarining

magnit maydoni ta'siridagi harakatlari kuzatiladi. Lekin bu tajribalar paytida bolalarning hayot xavfsizligi ta'minlanishi zarur.

Ko'pchilik kichik bolalar suvni yaxshi ko'radilar. Bolalarga o'zlari yaxshi ko'radigan suv haqidagi tasavvurlarini boyitish maqsadida, toza plastik konteynerlardan foydalanib, eng sodda tajribalar o'tkaziladi. Masalan, suvgaga turli ranglarni aralashtirish va hosil bo'lgan natijalarni ko'rib chiqish. Suvga sut, sharbat, asal kabilalar yaxshi aralashadi. Bu natijani shaffof konteynerlar orqali kuzatish mumkin. Bolalardan yana qanday suyuqliklarni aralashtirishni xohlashlari so'raladi. O'simliklar hayoti uchun suvning zarurligini sug'orilgan va sug'orilmagan o'simliklarni kuzatish orqali yoki tuproqqa ekilgan urug'larga suv quyish va suv quymasdan natijalarini kuzatish orqali, suvning hayotdagi zarurati haqida hulosalar chiqarishga o'rgatiladi. Suvning bug'lanishi, muzlashi va erib qayta suv holiga kelishini xonadagi tajribalar orqali bilib oladilar. Suv bilan o'tkaziladigan tajribalarda voronkalar, qoshiqlar, quvurchalar, elakchalar, cho'tkalar, suvda suzuvchi materiallar va suvda cho'kuvchi metall materiallardan foydalanib, suzuvchi va cho'kuvchi materiallar bilan tajribalar o'tkazish mumkin. Ayrim materiallarni suvni shimbish olish jarayonini kuzatish uchun har-xil turdag'i qog'ozlardan, gazlamalardan va boshqa materiallardan foydalaniladi. Asta-sekin bolalar suvning fizik xossalari haqidagi tajribalari boyib boradi. Buning natijasida esa fan bir vaqtning o'zida ham natija, ham jarayon sifatida namoyon bo'lib, ikki yoqlama xususiyat kasb etadi. Bolalarda moddiy va tabiiy olam to'g'risidagi jamlangan bilimlar tizimi shakllanadi. Jarayon sifatida esa-tadqiqotlar, kuzatishlar, tajribalar tabiat hodisalarini va undagi qonuniyatlarini bilib olishga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida hozirgi kunda ko'plab horijiy mamlakatlarning maktabgacha ta'limga tizimidagi avzal tomonlaridan, samarali tajribalaridan foydalanib kelinmoqda. Masalan, bolaga yo'naltirilgan ta'limga dasturlari Germaniya, Italiya, Janubiy Koreya davlatlari ta'limga samarali foydalanib kelinadi. Maktabgacha ta'limga amalda bo'lgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi ham Janubiy Koreya davlatining maktabgacha ta'limga dasturi andozasi asosida tayyorlangan.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi 802-soni qarorining 1-ilovasi Maktabgacha ta'limga tarbiyaning Davlat standarti Toshkent 2020 yil
2. O'zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagagi bolalar rivojlanishiga qo'yildigan davlat talablari va "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini joriy etish bo'yicha trenerlar uchun qo'llanma. Toshkent 2019 yil
3. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limga tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi Toshkent 2019 yil
4. X.Axmedova. D.Raximova." Bolalarga yo'naltirilgan ta'limga dasturlarini tashkil etish" Qo'llanma. Toshkent 2012 yil
5. O.U.Xasanboeva "Maktabgacha ta'limga pedagogikasi" Toshkent "Ilm ziyo" 2012 yil